

O'quv amaliyot mashg'ulotining O'qitish texnologiyasi
4.1. Mavzu: Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi uchun model tanlash,
konstruktiv modellash va andoza tayyorlash.

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Vaqt: 240 daqiqa	Talabalar soni 21 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	O'quv amaliyot mashg'uloti
O'quv mashg'ulotning rejasi	1. Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi uchun model tanlash 2. Konstruktiv modellash 3. Andoza tayyorlash
O'quv mashg'uloti maqsadi: Texnik shartlar asosida maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi uchun modellash va andozasini tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilish.	
O'qitish natijasi:	Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi uchun model tanlash tayyorlashda mustaqil ish tutushi va andozasini tayyorlash
Pedagogik vazifalar: 1. Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi modellash bilan tanishtirish 2. Andozasini tayyorlashni tushuntirish 3. Tehnologik yo'riqnoma berish.	O'quv faoliyati natijalari: 1. Texnik shartlar asosida maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi modellashni aytib beradi 2. Andozasini tayyorlashni bosqichma bosqich gapirib beradi 3. Berilgan yo'riqnoma asosida mustaqil bajarish.
O'qitish usullari	Tushuntirish, namoyish metodi, tezkor-so'rov javob, klaster metodi.
O'qitish vositalari	Yo'riqli texnologik xarita, kerakli jihoz va asboblari, slaydlar, o'quv anjomlari
O'quv faoliyatini tashkil etish shakli	Jamoaviy, kichik guruhlarda ishlash juftlikda
O'qitish sharoiti. Qaytar aloqaning usul va vositalari.	Universal va maxsus tikuv mashinalari bilan jihozlangan tikuvchilik ustaxonasi. Nazorat, bajarilgan ishni tekshirish.

O'QUV AMALIYOTINING TEXNOLOGIK XARITASI.

O'quv amaliyoti o'tkazish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish 15-daqiqa.	1.Mavzu Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi uchun model tanlash, konstruktiv modellash va andoza tayyorlash. 2.Mavzu bo'yicha vazifalarni tushuntiradi. 3.Bajariladigan ishlar ketma-ketligi bilan tanishtiradi. 4.Mazkur mavzu bo'yicha o'quv materialini bayon qiladi. Har bir o'quvchining nazariy bilimlarini baholash uchun test savollari beradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar.Amaliyotga xavfsizlik texnikasi, sanitariya va gigiyena talablariga rioya qilgan holda mahsus kiyimda keladi Xavfsizlik texnikasi jurnaliga imzo qo'yadilar. Tinglaydilar
2-bosqich. Asosiy 200 daqiqa.	Kirish yo'riqnomasi (50 daqiqa) O'quvchilar bilimini faollashtirish 1. Tezkor so'rov , savol javob, aqloiy hujum orqali bilimlarni faollashtiriladi. Yangi o'quv bayoni: 2..O'quv amaliyot mavzusi bo'yicha umumiy ma'lumot beradi, ish jarayonini tushuntiradi: Joriy yo'riqnoma (135 daq). Yangi o'quv materialini bo'yicha amaliy mashq bajarish . 3. Ta'lim oluvchilarni ish joylariga taqsimlab amaliy ish yuzasidan yo'riqnoma texnologik xarita hamda mustaqil ish bajarish uchun xom ashyo tarqatadi va ko'rsatmalar beradi 4.Mustaqil ishlarni bajarilishini maqsadli aylanish vaqtida nazorat qiladi va ish jarayonida o'quvchilar tomonidan qo'ygan xatolarini ko'rsatadi Yakuniy yo'riqnoma (15 daq). 5.Mashg'ulot tugaganidan so'ng ish joylarini talab darajasiga keltiradi. Tayyorlangan mahsulotni qabul qiladi.	Savollarga Javob beradi. Tinglaydilar, chizadilar yozib olishadi Ta'lim oluvchilar o'z ish joylariga turadilar, mashg'ulot rahbari ko'rsatmalari va yo'riqli texnologik xaritaga rioya qilgan holda bajaradilar. Xatolarini to'g'irlaydilar foydalanilgan jihozlarni mashg'ulot rahbariga topshiradilar. Ish joylarini tozalaydilar.
3-bosqich. Yakuniy 25 daqiqa.	Yakunlash 1 O'quvchilarni amaliy mashg'ulot bo'yicha baholarini e'lon qiladi 2. Kelgusi kasbiy faoliyatlarida amaliyotda bajargan ishlarining ahamiyati va muhimligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. 3. Kelgusi mashg'ulot bilan tanishtirib uyga vazifa beradi.	Bajargan ishlarni topshiradi. Usta bergan ko'rsatamlarni va baholarni eshitadi. Uy vazifasini daftarga yozib oladi.

Shim silueti, shakli va uzunligi moda yo'nalishiga bog'liq.

Shim butun uzunligi bo'yicha keng yoki tor, faqat ayrim uchastkalarida (tizza va bo'ksa qismida) toraygan yoki kengaygan, pochasi keng yoki tor, uzun yoki kalta bo'lishi mumkin.

Shimlar uslubiy yechimiga ko'ra klassik, yarimklassik, sport, golife, «avangard» turlarga bo'linadi.


Klassik shimplarga - shaklning to'g'riligi, shimning beldan bo'ksagacha yopishib turishi va boldir mushagiga tegib turishi xosdir. Shim yon ko'rinishida uning oldingi va orqa buklov chiziqlari aniq ko'rinib turadi.

Yarim klassik shimplarga – shakli nisbatan bemaolol, ya'ni bo'ksadan shim pochasiigacha to'g'ri shakl hosil qiluvchi shim kiradi. Bel chizig'i bo'yicha bitta, ikkita yoki uchta taxlama loyihalanishi mumkin.

«**Sport uslubida**» yechilgan shimplarga tor va to'g'ri shakl hosil qilish uchun cho'ntak bo'laklarining, piston, koketka konstruktiv bo'linishlarning ko'pligi, yon cho'ntak qirqim ustidan bir yoki ikki qator bezak baxyaqator tikilganligiga xosdir. Sport uslubidagi shimlar cho'ziluvchan, jinsi gazlamadan tikiladi.



1-rasm. Shimning asosiy bo'laklari va konstruktiv chiziqlari



2-rasm. Tekislikda joylashtirilgan namunaviy konstruktiviy shimning tashqi ko'rinishi.

Klassik shimlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning tekislikka silliq joylashishidir. (2-rasm). Shimning ikkita yarim bo'laklarini yon va odim choklarini ustma-ust tushadigan qilib tekislikka joylashtirilganda shim sirtida turli yo'nalishdagi ortiqcha taxlamalar, burishik bo'lmasligi, silliq, tekis shakl hosil qilishi kerak. Faqat shundagina shim qomatda chiroyli va yaxshi o'rnashadi. Shimning sifati texnologik ishlov berish jarayonining to'g'ri bajarilishiga ham bogliq.

O'g'il bolalar shimining shakli, uzunligi, silueti modalar yo'nalishiga qarab o'zgaradi. Shimlar konstruktiviyasi bo'yicha tor, keng, pochaga qarab kengaygan yoki toraygan, golife ko'rinishida bo'ladi. Bo'ksadan kengaygan, kalta, uzun shaklida loyihalanadi. Shim bel chizig'ida, beldan yuqorida yoki beldan pastda joylashishi mumkin. Shim belbog'i qalin yoki ingichka, ikki uchlari uzaytirilgan, yoki bir tomoni uzaytirilgan kamar tutgichli yoki tutkichsiz, yon chokli yoki yaxlit bichilgan bo'ladi. Kamar tutgich shakli ham turlichadir.

Shim taqilmasi tugma va izmada yoki «molniya» da bo'lishi mumkin.

Shim modeli odam yoshiga, model ko'rinishiga, tanlangan uslubga, gazlamaga mos bo'lishi kerak.

Shim yon cho'ntak turlari xilma-xil bo'lib, yon chokda joylashgan, qoplama, qirqma (gorizontal, vertikal, burchak ostida yo'nalishli), yoysimon qirqma cho'ntakli bo'lishi mumkin. (1-rasm).

O'g'il bolalar shimining ort bo'lagida ikkita yoki bitta cho'ntak joylanishi mumkin (qirqma ramkali, qirqma listochkali, qirqma plankali, qoplama). O'ng old bo'lakda belbog'ni ulash qirqimida soat cho'ntak ham loyihalanadi.


Sport va avangard uslubidagi shimlarda old bo'lakda qo'shimcha tizzada joylashgan turli shakldagi qoplama va qirqma cho'ntaklar, og'ziga «molniya» taqilmasi tikilgan cho'ntaklar ham loyihalanishi mumkin.

Maxsus va ish kiyimlarida, kombinizonda aksariyat turli shakldagi qoplama cho'ntaklar, klassik uslubdagi shimlarda, asosan, qirqma cho'ntaklar qo'llaniladi.

Shim pochasi manjetli yoki manjetsiz bo'lishi mumkin.

Shim old va ort bo'laklarida relief chok va koketka, gorizontal choklar loyihalanishi mumkin.

Shimlar vazifasiga qarab kundalik, ish uchun, tantanali marosimlarda kiyadigan bo'ladi.



1-rasm. O'g'il bolalar shimida yon cho'ntak turlarining ko'rinishi


a-qirqma og'ma; b- yoysimon qirqma; c-qirqma listochkali; d- chokda joylashgan O'g'il bolalar shimi uchun asosiy, astar va oraliq gazlamalar tanlanadi.

Asosiy avra gazlama sifatida jun, yarimjun, lavsan, tukli va shaklni saqlovchi trikotaj polotnosi, sun'iy kostyumbop gazlamalar tavsiya etiladi. Shim uchun eng ko'p tarqalgan avra gazlamalar assortimentiga triko, movut, velvet, djins, koverkott, tvid, flanel kabi klassik artikullar bilan bir qatorda, cho'ziluvchan silliq va tukli, jakkard sun'iy gazlamalar artikuli ham kiradi. Avra gazlamalar kam g'ijimlanuvchan, shaklsaqlovchi, cho'zilmaydigan, kirishmaydigan, pishiq, kirchimol bo'lishi kerak. Bu talablar ayniqsa ish va kundalik kiyish uchun mo'ljallangan shimlar uchun muhimdir.

Shu bilan birga avra gazlama rangi oftob va ob-havo ta'siriga chidamli, ishqalanishga, dazmollashga chidamli bo'lishi kerak. Shim astari uchun sun'iy va shoyi astarlik gazlamalar tavsiya etiladi. Odam yurganda shim bo'laklari qadam tashlashga, o'tirishga oyoqni bukishga halaqit qilmasligi kerak. Shuning uchun astar gazlama silliq, sirpanuvchan fakturali (sirtli) bo'lgani ma'quldir.

Qotirma materiallar va furnituraga asosan shim belbog'ini mustahkamlash uchun mo'ljallangan korsaj tasma, pochasini yemirilishdan saqlovchi atlas tasma, cho'ntak bo'laklariga qo'yiladigan uqa (flizelin yoki dublirin) kiradi. Furnitura va qotirma gazlama turlari ishlab chiqarishda qabul qilingan texnologiya va jihozlarga bog'liq holda tanlanadi.

O'G'IL BOLALAR SHIMI ASOS KONSTRUKSIYASINI MODELLASH



2-rasm. Klassik uslubdagi O'g'il bolalar shimining tashqi ko'rinishi

Tashqi ko'rinish tavsifi. Klassik uslubdagi O'g'il bolalar shimi, to'g'ri siluetli, uzunligi to'piqqacha, yon chokli, belbog'li. Old bo'lak bel qirqimida ikkita kichkina taxlama mavjud. Belbog' uchlari izma va tugmaga taqiladi. Shim taqilmasi – molniyada.

Belbog'iga oltita kamar tutkich tikilgan: ikitasi – yon chokda, ikkitasi old taxlama o'rnida, ikkitasi orqada; orqa o'ng bo'lakda qirqma ramkali (mag'izli) cho'ntak, old bo'lakda og'ma qirqma cho'ntak loyihalangan. Shim astarlidir.

Shim konstruktsiyasini modellash - shim asos konstruktsiyasi chizmasida amalga oshiriladi. Buning uchun shim old va ort bo'laklari konturlari asos konstruktsiyadan qog'ozga alohida-alohida qilib ko'chiriladi. Chizmadan asosiy konstruktiv chiziqlar, kertiklar shim buklov chiziqlari ham ko'chiriladi. *Shim old bo'lagini modellash bosqichlari:*


- shimning bo'ksa chizig'i va og' chizig'i bo'yicha kengligini aniqlash;
- shimning uzunligi va pochasi kengligini aniqlash;
- taxlamalarni modellash;
- cho'ntaklarni modellash.



3-rasm. Tekislikda joylashtirilgan namunaviy konstruktsiyali shimning tashqi ko'rinishi.

Klassik uslubdagi O'g'il bolalar shimiga qomat bo'ksa va bel uchastkalari bo'yicha yopishib turishi, tizzadan pastki qismining boldiriga tegib turishi xosdir. Ba'zi hollarda klassik shim old bo'lakda taxlamalar hisobiga bemaolroq turishi mumkin (2-rasm). Klassik shimlarda old va ort buklov chiziqlari aniq ifodalangandir (3-rasm).

Old buklov chiziq tizza o'rtasiga (chanoqlariga) va pastda oyoq uchlariga, ort buklov chiziq dumba o'rtasiga va tovon markaziga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.



4-rasm. Shim old bo'lagini modellash.

a — bir tomonlama taxlamani modellash.

Shim old bo'lagi bel chizig'ida ikkita taxlama o'rni belgilanadi. Taxlama yon cho'ntak tomondan old o'rta qirqim tomonga qarab qo'yiladi. Taxlamalardan biri old


Shim pochasi dan polgacha bo'lgan masofa (shim uzunligi) shim silueti va pochka kengligiga bog'liq. Agar shim pochasi kengligi K_{pocha} 28 . . . 32 sm bo'lsa, poldan pochagacha bo'lgan masofa (M_{pp}) q 3-4 sm, Agar K_{pocha} = 24-27 sm bo'lsa, M_{pp} = 5-6 sm. K_{pocha} = 20-23 sm bo'lsa, M_{pp} = 7-8 sm.

Shim siluetini o'zgartirishning asosiy usuli parallel va konus kengaytirish yoki toraytirishdir. Konus kengaytirish shim konstruksiyasining istalgan joyidan — bel, bo'ksa, tizzadan pastroqda boshlanishi mumkin. Kengaytirish kattaligi model siluetiga qarab yoki shunga o'xshash tayyor kiyimlarga qarab taxminan aniqlanadi.

Klassik shimlarning bel qirqimidagi taxlamalar bir tomonga yoki qarama-qarshi tomonga qaratib loyihalanadi. Agar taxlama bitta bo'lsa, uning kattaligi va o'rni bel vitochkasi o'rnida belgilanadi. Ikki yoki undan ortiq taxlama yoki vitochkalar bo'lgan holda shimning bel, bo'ksa, tizza, og', pochka chiziqlari bo'yicha kengligi aniqlanadi va asos konstruksiya bilan solishtiriladi. Asos konstruksiya berilgan model siluetidan tor bo'lsa, old bo'lak shabloni buklov chizig'i bo'yicha bo'y barobar kesib olinadi va parallel kengaytirish vositasida kengaytiriladi. (4, a-rasm). Aksincha keng bo'lsa huddi shu kabi toraytiriladi.

buklov chizig'i yoki vitochka o'rnida belgilanadi. Taxlama kengligi 1,5-2,0 sm. Taxlama o'rnida kertiklar belgilanadi.


Shim old bo'lagida qirqma cho'ntaklar kattaligi shim razmeriga bog'liq bo'lib, ko'pincha unifikatsiyalangan bo'ladi.



6-rasm. Old bo'lak

5-rasm. Old bo'lakda qirqim yon cho'taklarni modellash namunalari

a—qirqma og'ma cho'ntak (yon chokdan cho'ntak og'zigacha bo'lgan masofa 48–56 razmerlar uchun 3,5...5,0 sm); b—yoysimon figurali cho'ntak; v - qirqma listochkali cho'ntak.



7-rasm. Erkaklar shimining orqa bo'lagini modellash.

O'g'il bolalar klassik uslubidagi listochkali cho'ntak shimlarda turli cho'ntaklarni modellash namunalari 5-rasmda keltirilgan.

Shim taqilmasini modellash taqilma turiga (izma va tugmali, molniyada) bog'liq.

Shim taqilmasiga izma va tugma bilan ishlov berilsa, gulfik va otkosok (taqilma adipi) andozalari loyihalanadi: gulfik chap old bo'lak uchun, otkosok o'ng bo'lak uchun. Taqilmaga «Molniya» bilan ishlov berilsa, gulfik old bo'lak bilan yaxlit loyihalanadi. (6-rasm).

Shim pochasini chizmada kengaytirish yoki toraytirish model xususiyatlariga bog'liq.

Shim ort bo'lagini texnik modellash - bosqichlari huddi old bo'lakka o'xshash bajariladi. Klassik shim ort bo'lagida taxlama loyihalanmaydi. Ort cho'ntak og'zi


kattaligi 17-19 sm (88-104 razmerlar uchun – 17 sm, katta razmerlar uchun 19 sm). (7-rasm).

Ort cho'ntak listochkali bo'lganda cho'ntak og'zi kattaligi o'zgarmaydi. Listochka kengligi unifikatsiyalangan bo'laklarda berilgan.

O'g'il bolalar shimi bo'laklari spetsifikatsiyasi




1-jadval.



Bo'lak nomi	Bo'lak belgisi	Soni		Gazlama turi
		Bichiqda	Andoza	
Shim ort bo'lagi	01	2	1	Asosiy
Shim old bo'lagi	02	2	1	Asosiy
Shim belbog'i	03	2	1	Asosiy
Old cho'ntak ko'rinmasi.	04	2	1	Asosiy
Ort cho'ntak ko'rinmasi	05	1	1	Asosiy
Cho'ntak mag'izi	06	2	1	Asosiy
Kamar tutgich	07	6	1	Asosiy
Old bo'lak astari	09	2	1	Astar
Taqilma gulfigi.	08	1	1	Asosiy
Gulfik astari	10	1	1	Astar
Leya	11	1	1	Astar
Old yon cho'ntak xaltasi	12	2	1	Astar
Orqa cho'ntak xaltasi.	13	1	2	Astar



8-rasm.Belbog chizmasi.

**«O'G'IL BOLALAR SHIMINI MODELLASH VA ANDOZASINI TAYYORLASH»
BO'YICHA TEXNOLOGIK XARITA**

Texnologiya asosida faoliyat turlari	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I. O'g'il bolalar shimi asos konstruktsiyasini modellash		
1.1. O'g'il bolalar shimi texnik chizmasi (old va ort tomondan ko'rinishi) ni chizish.		Shim tashqi ko'rinishi rasmi chizib olinadi.
1.2. Shim tashqi ko'rinishiga yozma tavsif berish.		Misolga qaralsin.
1.3. Shim asos konstruktsiyasini modellash uchun tayyorlash.		Shim asos konstruktsiyasining chizmasi T-82 moduldan olinadi. Buning uchun old va ort bo'laklardan alohida nusxa ko'chiriladi.
1.4. Shim old bo'lagida taxlama o'rnini belgilash.		Bel chiziqda ikkita taxlama o'rni belgilanadi. Taxlamalar yon cho'ntak tomondan qarab qo'yiladi. Taxlamalardan biri vitochka yoni old buklov chiziq o'rnida belgilanadi.
1.5. Old bo'lakni kengaytirish (taxlama haqqiga).		Old bo'lak buklov chizig'i bo'yicha bo'y barobar kesib olinadi va parallel kengaytirish vositasida kengaytiriladi. Taxlamalar kengligi 1,5-2,0 sm. Taxlama o'nida kertiklar belgilanadi.

1.6. Shim yon cho'ntagini modellash.		Shim old bo'lagida yon qirqma og'ma cho'ntak o'rni belgilanadi. Yon chokdan cho'ntak og'zigacha bo'lgan masofa – 3 . . . 4 sm. Cho'ntak og'zi kattaligi 16,5 . . . 18,5 sm, shu jumladan kichik razmerlar uchun (92 . . . 96) – 16,5 yon katta razmerlar uchun – 18,5 sm. Old bo'lak konstruksiyasida cho'ntak ko'rinmasi o'rni belgilnadi.
1.7. Shim pochasi kengligini modellash.		Pocha kengligi tayyor shimlarda 20 . . 32 sm gacha bo'lishi mumkin. Pocha kengligi modelga qarab aniqlanadi.
1.8. Shim taqilmasi gulfigini modellash.		Shim chap old bo'lagi gulfik (adip) bilan yaxlit loyihalanadi. Gulfik kengligi 4 sm, uzunligi 18 . . 20 sm.
1.9. Shim ort bo'lagini modellash.		Shim ort bo'lagida bitta qirqma cho'ntak loyihalnadi. Cho'ntak og'zi kattaligi 17 . . . 19 sm, cho'ntak loyihalash sxemasi 5-rasmda berilgan.
1.10. Shim model konstruksiyasi konturlarini andoza uchun tayyorlash.		Shim old va ort bo'lak model konstruksiyasining chizmasi yana bir bor tekshiriladi. Taxlama, ziyar o'rnini belgilovchi kertiklar, cho'ntakni o'rnatish chiziqlari, izma va tugmalar o'rni yana bir bor tekshiriladi, tanda ipi yo'nalishi chiziladi. Bo'lak konturlari chizib chiqiladi va andozalar uchun tayyorlanadi.
II. Shimning asosiy andozalarini ishlab chiqish		
2.1. Shim bo'laklarini model konstruksiya chizmasidan ko'chirish.		Shim model konstruksiyasi chizmasidan shim old, ort bo'laklari, tushirib olinadi. Kalka qog'oz yoki bazis orqali. Bunda har bir bo'lakka tegishli kertik va ichki asosiy konstruktiv chiziqlar ham tushiriladi.


2.6. Ort bo'lak xishtagi (og' ulog'i) andozasini tayyorlash.		Xishtak konturi bo'yicha chok haqqi qo'yib chiqiladi va xishtak andozasi tayyorlanadi. Xishtak barcha qirqimlari bo'yicha chok haqqi qiymati 1 sm.
2.7. Andozalarni qirqib olish.		Andoza konturlari chetlaridan bir oz qo'yim qo'yib (1,5 mm) qirqib olinadi. Bunda qirqimning silliqligiga e'tibor beriladi.
2.8. Andoza qirqimlarining muvofiqligini tekshirish.		Shim old va ort bo'laklarini, o'zaro birikuvchi qirqimlarini ustma-ust qo'yib, uzunligi va konqomattsiyasi bo'yicha tekshiriladi. Bunda bo'laklar kertiklar bo'yicha qirqimlar muvofiqlashtiriladi. Qirqim uchlariga chokning qaysi tomonga dazmollanishiga qarab aniqlik kiritiladi.

"Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi " o'quv amaliyotida "
Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shimi uchun model tanlash,
modellash, andoza tayyorlash " mavzusi bo'yicha o'quvchilarning
bilimlari quyidagi reyting mezonlari bo'yicha baholanadi:

4-ilova

Nazorat shakllari		Jami ballar
1. Joriy baholash: a) O'quvchining amaliy mashg'ulotdagi aktivligi; b) Uy vazifasini bajarish; v) Berilgan topshiriqlarni bajarishi		45 ball
2. Oraliq baholash (amaliy ishlarni tog'ri bajarishi)		40 ball
3. Yakuniy baholash (test va mavzuni mustahkamlovchi savollar boshqa turdagi nazoratlarni o'tkazish)		15 ball
Jami:		100 ball
O'zlashtirish ko'rsatkichlari	Baho	
85,05 – 100	5-A'lo	
70,01– 85	4-Yaxshi	
55,01 – 70	3-O'rta	
55 gacha	2-Qoniqarsiz	





**Taqiyatas kasip-o'ner mektebi 8-23 "Tigiwshilik" toparinda 2024-jil 24-dekabrde
o'tkizilgen**

ASHIQ SABAQ

PROTOKOLI

Qatnasqanlar

ISHIBDO:

A.Koshchanov

Aga usta;

G.Samekeeva

Oqiw o'ndirislik ustalari kafedrası baslig'I; A.Babajanov

Oqiw o'ndirislik ustalari G.Aytimbetova

B.Seytnazarova

K.Allambergenova

Ku'n ta'rtibinde:

O'ndirislik oqiw ustasi: S.Sultanova 8-23 "Tigiwshilik" toparina "Mektep jasindagi ul balalar shalbari ushin model tanlaw, modellew, ulgi tayarlaw, pishiw." temasinda oqiw ameliyatidan otken ashiiq sabaq haqqinda.

Tin'ladi: Jiynalisti oqiw o'ndirislik ustalari kafedrası baslig'i Babajanov A alip bardi. Ol o'z so'zinde S.Sultanova 8-23 "Tigiwshilik" toparinda "Mektep jasindagi ul balalar shalbari ushin model tanlaw modellew ham ulgi tayarlaw" temasinda otkerilgen ashiiq sabaq haqqinda aytip otti. Ashiiq sabaqta oqiw o'ndirislik ustasi jan'a pedogogikaliq metodlar menen sabaq o'tkenligin soraw juwap kartochkalar i barlig'in aytip o'tti. ISHIBDO A.Koshchanov shigip soyledi. Keyingi so'z Aga usta G.Samekeevaga berildi. Ol oz sozinde talimnin texnologiyaliq qurallaridan toliq paydalanilganin aytip otti. Oqiw o'ndirislik ustalari G.Aytimbetova ham B.Seytnazarovalarga berildi. Olar so'zinde ustalardin' ha'r bir sabag'i ashiiq tu'rde o'tkeriw kerek ekenligin aytiti, Oqiw o'ndirislik ustasi sabaqqa jaqsi tayarlanip kelgen ha'm oqiwshilarg'a jaqsi tu'sindirip bere aldi. Oqiw o'ndirislik ustasi tema boyinsha maqsetin ha'm waziypalarin tu'sindirdi ha'm orinlanatug'in jumislar izbe-izligi menen tanistirip o'tti. Oqiwshilar bilimlerin soraw juwap arqali tekserdi. En' tiykarg' isi oqiwshilardi miynet qa'wipsizligi texnika qa'wipsizligi qag'iydalari menen tanistirdi, oqiwshilar usta orinlag'an islerdi diqqat penen gu'zetip bardi. Ha'r bir oqiwshi orinlag'an islerin ko'rip, tekserip onin' durislig'in ha'm kemshiliklerin o'zleri ko'rsetip berdi.

QARAR

A.Koshchanov pedagogtin psixologiyaliq-fiziologiyaliq jagdayi soylewi qarim - qatnas madeniyati jaqsi dep bahaladi. G.Samekeeva tanlangan tema oqiw dasturine saykes ham talimnin texnologiyaliq qurallaridan toliq paydalandi. A.Babajanov tayansh bilimlerden belsendiligini asiriwdin har turli usillaridan paydalandi. G.Aytimbetova tema boyinsha ozlestiriw natijeleri tuwri ped-texnologiyalardan ham metodlardan toliq paydalandi. B.Seytnazarova mativatsiya beriwde har turli oyin ham usillardan paydalandi oqiwshilar duris bahalandi. K.Allambergenova kasiplik bilim darejesi jaqsi sabaq protsesin basqara aldi ham waqitti duris boldi. S.Sultanova 8-23 "Tigiwshilik" Mektep jasindagi ul balalar shalbari ushin model tanlaw modellew ham ulgi tayarlaw" temasi bo'yinsha o'tken ashiiq sabaq "Jaqsi" dep bahalansin. Kafedra baslig'i A. Babajanov gezektegi sabaqlardi o'tkiziwde janede ko'birek qolayliqlar jaratip beriw tapsirilsin.

Jiynalisti alip bardi kafedra

basligi ;

Xatker;



A.Babajanov

D. Kulbaeva